# HAR BIR HUQUQBUZARLIK UCHUN JAZO MUQARRAR!



HAR BIR HUQUQBUZARLIK UCHUN JAZO MUQARRAR!

Termiz shahar Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boʻlimi inspektorlari tomonidan navbatdagi reyd nazorat tadbiri oʻtkazildi.

Tadbirda Maʼrifat mahallasi hududidagi Xon Saroy oshxonasi yollanma ishchisi yaʼni fuqaro D.U tomonidan maishiy chiqindilarni oshxona rahbariyatidan soʻramasdan oʻzboshimchalik bilan oshxona yaqinida joylashgan manipulyator chiqindi konteyneriga joylashtirmasdan belgilanmagan joyga toʻkib ketganligi sababli unga nisbatan Oʻzbekiston Respublikasi MJtKning 911-moddasining 1 qismiga asosan bayonnoma rasmiylashtirilib, va bazaviy hisoblash miqdorining ikki barobari miqdorida maʼmuriy jarima belgilandi.

Oʻz navbatida belgilanmagan joyga toʻkilgan chiqindilar joyida bartaraf qilinib, va oʻzini hududidagi konteynerga joylashtirildi. "Xon saroy" oshxonasi rahbariyatiga

bunday holatlar takrorlanmasligi uchun hududda hosil boʻlgan maishiy chiqindilarni maxsus chiqindi konteyneriga joylashtirilishini nazoratga olish vazifasi yuklatildi.

Shuningdek, shaharning “Majnuntol” mahallasida tezkor reyd tadbiri oʻoʻtkazilganda fuqaro G.A tomonidan sanitar tozalash ob’yektidan foydalanish talabini buzganligi aniqlandi. Unga nisbatan Oʻzbekiston Respublikasi MJtKning 912-moddasiga asosan jarima qoʻllanildi va chiqindilar joyida bartaraf etildi.

Image not found or type unknown

Shu oʻrinda fuqarolarimizni hududlarda onlayn kameralar nazorati ishlayotganligi yuzasidan ogohlikka chaqiramiz. Shahrimiz tozaligi barchamizning sogʻligimiz va koʻrkimizdir.

Image not found or type unknown